XALQ DEPUTATLARI QAMASHI TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2026-yil 31-iyul VII-24-83-4-58-K/26 Qamashi tumani

Qamashi tumanida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan koʻrsatiladigan obodonlashtirish va maishiy chiqindi xizmatlari uchun toʻlov tariflari miqdorini tasdiqlash toʻgʻrisida

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha tuman hokimining oʻrinbosari v.v.b R.Boymirzayevning taklifi eshitildi.

Taʼkidlandiki, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-387-sonli qarorning 8.a-bandida 2026-yil 1-yanvardan boshlab obodonlashtirish boshqarmalari tomonidan tumanlar markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatishga ruxsat berilgan.

Bunda, chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatganlik boʻyicha tariflar tuman (shahar) hokimliklari tomonidan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga koʻrib chiqish va tasdiqlash uchun kiritilishi belgilangan.

Kun tartibidagi masalani atroflicha muhokama qilib, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrdagi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-387-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda tuman hokimining oʻrinbosari v.v.b R.Boymirzayevning taklifini koʻrib chiqib hamda yuqoridagilarni inobatga olib, Oʻzbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati toʻgʻrisida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha tuman hokimining o‘rinbosari v.v.b R.Boymirzayevning taklifi ma’qullansin.

2. Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy ko‘chalari bo‘yidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini ko‘rsatish bo‘yicha tariflar ilovaga muvofiq ma’qullansin.

3. Mazkur qaror ijrosini ta’minlash tuman hokimining birinchi o‘rinbosari N.Muminov hamda bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Toshturdiyev) zimmasiga yuklatilsin.

4. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

5. Ushbu qaror rasmiy veb-sayt va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinsin.

Kengash raisi **NOMOZOV ABDUMALIK ERGASHOVICH**

Xalq deputatlari Qamashi tumani
Kengashining
2026-yil 31-iyuldagi
VII-24-83-4-58-K/26 -son qaroriga
1-ilova

Tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan tuman markaziy koʻchalari boʻyidagi tadbirkorlik subyektlari bilan tuzilgan shartnoma asosida chiqindilarni olib chiqish va hududlarni obodonlashtirish xizmatini koʻrsatish boʻyicha

TARIFLAR

Xizmat koʻrsatiladigan shaxslar	**Tip, marka, artikul yoki model raqam**	**Oʻlchov birligi**	**Tarif miqdori (soʻm) (QQS bilan)**
Yuridik shaxslar uchun	Maishiy chiqindilar	m^3	**96 628,0**
Yuridik shaxslar uchun	Obodonlashtirish	m^2	**6 935,0**